

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

AMINOVA NARGIZA SHARIFOVNA

**FRENSIS BEKONNING ILMIY-FALSAFIY MEROSI
VA UNING HOZIRGI ZAMONDAGI AHAMIYATI**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI BO`YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of Dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
philosophical sciences**

Aminova Nargiza Sharifovna

Frensis Bekonning ilmiy-falsafiy merosi va
uning hozirgi zamondagi ahamiyati 5

Аминова Наргиза Шарифовна

Научно-философское наследие Фрэнсиса Бэкона и
его значение в настоящее время 23

Aminova Nargiza Sharifovna

Francis Bacon’s scientific-philosophical heritage and
its importance at the present time..... 43

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 47

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

AMINOVA NARGIZA SHARIFOVNA

FRENSIS BEKONNING ILMIY-FALSAFIY MEROSI
VA UNING HOZIRGI ZAMONDAGI AHAMIYATI

09.00.03 – Falsafa tarixi

Falsafa fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Fal800 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Salomova Hakima Yusupovna
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Qodirqul Ro'zmatzoda
falsafa fanlari doktori, professor

Ro'zmatova Gulnoz Mirahrarovna
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil "13" may soat 10³⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1452 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "1" may kuni tarqatildi.
(2023 yil "29" aprel dagi 3 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Navro'zova G. N.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A. Z.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Namozov B.B.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar rais o'rinbosari,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon mamlakatlarida XX asr oxiri – XXI asr boshlarida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy jarayonlar ilm-fan taraqqiyotida yuksak istiqbollarni ochib bermoqda. Jahon falsafiy-axloqiy tafakkurining yuksalishida G‘arb madaniy-ma’naviy merosi o‘ziga xosligi bilan asrlar davomida umuminsoniy qadriyat sifatida doimiy e’tiborni tortib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, Yevropa Uyg‘onish davri mutafakkirlarining merosi bugungi madaniy jarayonlarni uyg‘unlashtirish, umuminsoniy qadriyatlarni asrash uchun nazariy ahamiyatga ega bo‘lib, bunda yangi davr falsafasining asoschisi F.Bekon hayoti, ijodi va faoliyatini, barcha xalqlarning ma’naviy-axloqiy jihatdan rivojlanishidagi imkoniyatlarini asoslab berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani va ilmiy tadqiqot markazlarida Yevropa Uyg‘onish davrida vujudga kelgan ma’naviy-ma’rifiy, falsafiy-axloqiy, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, bag‘rikenglik, sog‘lom fikr, ilm olishga qaratilgan g‘oyalarni tadqiq etishga oid fundamental izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada G‘arb Uyg‘onish davri namoyandasi, siyosiy arbob Frensis Bekonning “Kuch-bilimda”, bilishda tajribaning ahamiyatiga oid g‘oyalarni ilmiy tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Frensis Bekonning tafakkurni yangi pog‘onaga ko‘tarishga, taraqqiyotni ratsional tashkil etish va boshqarishga, yuksak ma’naviyatli yangi avlodni tarbiyalashga xizmat qiluvchi, insoniyat taraqqiyotiga yordam beruvchi g‘oyalar, umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganishga oid fikrlarini ilmiy-nazariy va falsafiy-metodologik jihatdan tadqiq etish zaruriyati tobora ortib bormoqda.

Yangi O‘zbekistonda tabiat, inson, jamiyat, inson ma’naviyati, olam va odam munosabatlari, diniy va dunyoviy qadriyatlar integratsiyasi, o‘zlikni anglash, tarbiya va ta’limga oid xorijiy tajribalarni o‘rganish, ularning zamonga hamohang g‘oyalaridan yosh avlodni munosib vorislar qilib tarbiyalashda foydalanishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. “Jahon hamjamiyati tomonidan keng e’tirof etilayotgan ushbu ilmiy-ma’naviy meros dunyo madaniyati va ma’naviyati taraqqiyotiga bebaho hissa bo‘lib qo‘shilgani ma’lum. Aynan ana shu omil Yangi O‘zbekiston poydevorini yaratishda, ilm-fan, ma’naviy va madaniy faoliyat, ta’lim-tarbiya sohalarini keng rivojlantirish va yangi bosqichga olib chiqish uchun asos bo‘lmoqda”¹. Ma’naviy va ijtimoiy-iqtisodiy yangilanishlar sharoitida O‘zbekistonda umuminsoniy qadriyatlarga tayangan madaniyatni yanada rivojlantirish va yoshlar tarbiyasida ushbu ma’naviy boylikdan foydalanish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan Frensis Bekonning tarix va shaxs muammolari, siyosiy institutlarning qonun ustuvorligi ostida faoliyat yuritishini ta’minlashga oid ijtimoiy-tarixiy va siyosiy qarashlari, aqlni unga xavf solib turgan idollardan va ongni sxolastik dogmalardan xalos etish kabi axloqiy-falsafiy g‘oyalarning hozirgi ijtimoiy-tarbiyaviy jarayonlar xarakteriga hamohangligini ochib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 2021. –Б.34-35.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28-yanvar 2022-yildagi PF-60-son 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 1-iyuldagi PF-6255-son “2021 – 2026-yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmonlari, 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-son “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrdagi 820-son “Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari hamda sohaga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Frensis Bekonning hayoti va ijodi tadqiqotchi olimlar tomonidan ma’lum darajada o‘rganilgan, uning ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-tarixiy, axloqiy-siyosiy qarashlari tahlil qilingan va undan foydalanish bo‘yicha ilmiy-falsafiy, tarixiy-siyosiy sohalarda tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xorijda T. Sprat, J. Bertand, J. Formey, T. Gobbs, Volter, D. Didro, Dalamber, T.Rid, E. Kondilyak, J. Gershel, J.S. Mill, Stefan Maknayt, Frederik Kopleston, B.Bevan, J.G.Grovzer, F.H.Anderson, B. Farington, D.D.Maurer kabi davlat arboblari, olimlar va ziyolilar F.Bekonning hayoti va ijodiga oid kitoblar, maqolalar chop etganlar².

² Thomas Sprat .The History of the Royal Society of London, for the Improving of Natural Knowledge. – London,printed by T.R. for J.Martyn. 1667.-438p; Bertrand J. L’academie des academicians de 1666a. 1793.-370p; Formey J. History de Academie Royal des sciences et belles lettres depuis son origine jusqua present. –Berlin, 1750.-258p; Thomas Hobbes.Leviathan, The Matter, Forme and Power of a Common Wealth Ecclesiasticall and Civil. - London, 1651.-365p; Voltaire. Dictionnaire philosophique portatif. Londres [Genève], 1764.-211p; Дени Дидро «Философские мысли» (fr. *Pensées philosophiques*) Париж,1746-137p; Даламбер «Основы философии», "Discours Préliminaire," *Encyclopédie ou Dictionnaire raisonné des sciences, des arts et des métiers*, 1:i-xlv (Paris, 1751).140p; Thomas Reid “Essays on the intellectual powers of man”, Boston: Phillips, Sampson, and company, 1855.-496p; Кондильяк Э. Б. Сочинения в 3-х томах / Пер. с фр.; общ. ред. и примеч. В. М. Богуславского. — М.: Мысль, 1980. — 334p. William Herschel “Angus Armitage”, - New York, Doubleday and Company, Inc. 1963-196p. Ж.С.Милл. « Система логики силлогистической и индуктивной: Изложение принципов доказательства в связи с методами научного исследования». -Лондон, 1843; Stephen A.McKnight. The religious foundations of Francis Bacon’s thought . -USA. University of Missouri ,2006.-193p. Frederick Copleston. A History of Philosophy, Volume 3: Late Medieval and Renaissance Philosophy: Ockham, Francis Bacon, and the Beginning of the Modern World.-New York, London,Toronto -Doubleday.-1993.-479p.; B. Bevan. The Real Francis Bacon. London.-Centaur Press, 1960.- 303p.; J. G. Growther . Francis Bacon, the First Statesman of Science. London.-Cresset Press, 1960.-362p; F.H. Anderson. Francis Bacon, His Career and His Thought. New York.- University of Southern California Press, 1962.-367p; B. Farrington. Francis Bacon. Pioneer of Planned Science. New York.-Publisher, Praeger, 1969.-127p; D.D. Maurier. The Winding Stair. Francis Bacon, His Rise and Fall. London.- Gollancz, 1976.- 245p.

Frensis Bekoning hayot yo‘li va ilmiy-falsafiy qarashlari borasida MDH mamlakatlari olimlaridan V.F.Asmus, Yu.P.Mihalenko, B.B.Sokolov, L.L.Subbotin, Ye.F.Litvinova, A.V.Dushin, Yu.E.Smagin, Trunov A.A., Erlixson I.M., I.S.Dmitriyev, A.A.Bubnixin, I.S.Barsukov, S.S Saregorodsevning dissertatsiya va tadqiqotlarida faylasufning qarashlari tadqiq etilgan³.

O‘zbekistonlik olimlarning asarlarida, nashr etilgan o‘quv qo‘llanmalarida Bekon nomi, ilmiy metodlari, u yoki bu fikrlari tilga olinadi, ammo ular maxsus tadqiqotlar emas. Q.B.Shadmanovning tadqiqotlarida XIV-XVII asrlarda ingliz falsafasidagi kategorial tushunchalarning xususiyatlari, falsafa tilining Renessans davridagi o‘ziga xosliklari tadqiq qilingan, “Frensis Bekon va uning “Tajribalar yohud axloqiy va siyosiy nasihatlar”ida donolik va haqiqatning ontologik hamda epistemologik asoslari” monografiyasi 2022 yilda chop etilgan⁴. Q.G. Narimanov “Abu Rayhon Beruniy va Frensis Bekon gnoseologik-ahloqiy konsepsiyalarining falsafiy-komparativistik tadqiqi” 09.00.03 – falsafa tarixi ixtisosligi bo‘yicha dissertatsiya himoya qilgan⁵. R.Karimov, Q.Nazarov, G.Ro‘zmatova, R.Qodirqul, S.Choriyev, G.Qobulniyozova kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida bir qator G‘arb Uyg‘onish davri namoyandalarining falsafiy-axloqiy ta‘limotlari tadqiq etilgan⁶.

Dissertatsiyani yozish jarayonida nomlari ko‘rsatilgan va boshqa bir qator o‘zbek hamda jahon tadqiqotchilarining ilmiy izlanishlaridan metodologik manba sifatida foydalanildi. Tahlil natijalari mazkur yo‘nalishda bajarilgan ishlarda

³ В.Ф.Асмус.Фрэнсис Бэкон. Избранные философские труды. Россия.-“Букинист”1969.-864с.; Ю.П.Михаленко. Фрэнсис Бэкон и его учение. Москва.-Наука,1975.-264с.; В.В.Соколов. Очерки философии эпохи Возрождения. Москва.-Букинист,1962.-168с.; Субботин. Л.Л. Фрэнсис Бэкон и принцип его философии.Москва.-«Мысль»,1970.-54б.; Литвинова Е.Ф. Ф.Бэкон: его жизнь, научные труды и общественная деятельность. - Москва : Красанд,2010.-79с.; Душин А.В. Идея образования в эмпирическое философии Фрэнсиса Бэкона. Проблемы и перспективы развития образования в России.- Москва.2013.- №18.; Смагин Ю.Е. Знание как власть в философии Ф. Бэкона .Вестник Ленинградского государственного университета им. А.С. Пушкина. Москва-2012.-Т.2, № 1.;Трунов А.А. Фрэнсис Бэкон и новое понимание политических идей .Актуальные вопросы общественных наук: социология, политология, философия, история. Россия–2013.– №26.; Эрлихсон И.М. «Новая Атлантида» Ф. Бэкона в английской социально-политической и философско-теологической мысли эпохи реставрации (1660-1689 гг.) Изв. РГПУ им. А.И. Герцена. Россия–2008.–№66.–270-281с.; И.С.Дмитриев Остров концентрированного счастья: судьба Фрэнсиса Бэкона.Россия,Новое литературное обозрение, 2022.-632б.; Бубнихин А.А. «Новая Атлантида» Фрэнсиса Бэкона как текст культуры в аспекте глобализации . Вестн. КГУ им. Н.А. Некрасова.Россия–2012.–№5.-42-45с.; Барсуков И.С. Проблема классификации наук в философии нового времени: от Ф.Бэкона до Ф.Энгельса. афтореферат диссертации кандидата философских наук.:Москва,Академия повышения квалификации работников образования,2000.- 38с.; Царегородцев С.С.Концепция общественного согласия Ф.Бэкона: политико-текстовый анализ. Диссертация на соискание ученой степени кандидата политических наук . Москва-2021.

⁴ Shadmanov Q.B. Frensis Bekon va uning “Tajribalar yohud axloqiy va siyosiy nasihatlari” da donolik va haqiqatning ontologik hamda epistemologik asoslari.Buxoro.-"Durдона" nashriyoti.2022.124 B.

⁵ Narimanov Q.G. Abu Rayhon Beruniy va Frensis Bekon gnoseologik-ahloqiy konsepsiyalarining falsafiy-komparativistik tadqiqi: Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati. – Toshkent. 2022.

⁶ S.Yo‘ldoshev, M.Usmonov, R. Karimov, G. Kobulniyazova, G.Ruzmatova . Yangi va eng yangi davr G‘arbiy Yevropa falsafasi (XVII— XX aarlar). -Toshkent.- «Sharq», 2002.-335b.; Nazarov Q. Falsafa asoslari.-T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2012.; G.Ro‘zmatova. O‘zbekistonda O‘rta Osiyo xalqlari falsafiy merosini o‘rganish tarixidan (1950-1980 yillar).Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya (09.00.03) .- Toshkent.1999 y.; Q.Ro‘zmatzoda. Hojamnazar Huvaydning tasavvufiy qarashlari. Monografiya.Toshkent”ZILOL BULOQ”-2019.-174b.; S.Choriyev.Falsafa, uning muammolari va jamiyatdagi roli.Qarshi.”Nasaf”-1999; G.Qobulniyozova. Yangi va eng yangi davr G‘arbiy Yevropa falsafasi (XVII— XX aarlar). -Toshkent.- «Sharq», 2002. -335b.;

Frensis Bekonning ilmiy-falafiy merosi yaxlit tadqiqot obyekti sifatida ilmiy tahlil qilinmaganligini ko'rsatmoqda. Mavzu doirasidagi muammo birinchilardan bo'lib tadqiq etilishi bilan ham ahamiyatlidir.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band "Yangi O'zbekistonda ma'rifatparvar davlat barpo etishning ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish muammolari" (2022-2026 yy) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Frensis Bekonning ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-tarixiy, siyosiy va axloqiy merosini hozirgi davrdagi ahamiyatini ilmiy-nazariy, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Frensis Bekon ilmiy qarashlarining shakllanishiga ta'sir qilgan ijtimoiy-tarixiy omillar va faylasufning hayot yo'li hamda ma'naviy merosiga ilmiy, ijtimoiy-falsafiy tasnif berish;

Frensis Bekonning ilmiy bilish metodlari va induksiyasining fanlar metodologiyasida, yangi davr falsafasida tutgan o'rni ahamiyatini aniqlash hamda naturfalsafaning mohiyati va xususiyatlarini ochib berish;

Frensis Bekonning ijtimoiy-tarixiy va siyosiy qarashlari mazmun-mohiyatini ochib berish hamda "Yangi Atlantida" asarida ilgari surilgan ideal jamiyat g'oyalarini tadqiq etish;

Frensis Bekon asarlaridagi axloqiy-falsafiy g'oyalar va ularning hozirgi davrdagi ahamiyatini belgilash hamda ilmiy merosining zamonaviy ilm-fan, texnika, ta'lim jarayonlari bilan bog'liqligini va uning ijtimoiy taraqqiyotga ko'rsatgan ta'sirini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Frensis Bekonning ilmiy-falsafiy merosi, "Yangi Atlantida" asari va yangi utopik g'oyalari tanlab olingan.

Tadqiqot predmeti Frensis Bekonning ilmiy, ijtimoiy-tarixiy, siyosiy va falsafiy-axloqiy qarashlari, naturfalsafasi va epistemologik merosida ilmiy bilish metodlari, "Yangi Atlantida" dadagi axloqiy - falsafiy qarashlari va ularning hozirgi davrdagi ahamiyatini falsafiy tahlil etishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarixiylik, obyektivlik, tadrijiy yondashish, analiz va sintez, retrospektiv tahlil, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Yangi davr falsafasining asoschisi F.Bekon hayoti, ijodi va faoliyati o'zbek tilida ilmiy-falsafiy yo'nalishda birinchilardan aniqlashtirilgan hamda XVI asrning ikkinchi yarmi va XVII asr boshlarida Angliyada sodir bo'lgan radikal islohotlarni muammoli tomonlarning faylasuf hayoti hamda ijodida aks etgani ochib berilgan;

Frensis Bekon ilmiy dunyoqarashining nazariy-falsafiy asoslarini nafaqat antik davr falsafasi, shuningdek Al-Qindiy, Forobiy, Ibn Rushd, Ibn Sino, Beruniy kabi Sharq mutafakkirlarining asarlari tashkil etishi asoslangan;

Frensis Bekon naturfalsafasining olamning asosi, inson va universum aloqalari kabi o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan hamda induksiya metodi va uning yangi davr falsafasidagi dialektik xarakterga egaligi asoslab berilgan;

Frensis Bekonning tarix va shaxs muammolari, siyosiy institutlarning qonun ustuvorligi ostida faoliyat yuritishini ta'minlashga oid ijtimoiy-tarixiy va siyosiy qarashlari, aqlni unga xavf solib turgan idollardan va ongni sxolastik dogmalardan xalos etish kabi axloqiy-falsafiy g'oyalarning hozirgi ijtimoiy-tarbiyaviy jarayonlar xarakteriga hamohang ekanligi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

falsafa tarixiga oid tadqiqotlar o'tkazishda, XVI-XVII asr G'arb falsafasida yaratilgan ilmiy-falsafiy maktablarni tahlil qilish va fanlar falsafasining zamonaviy muammolarini tadqiq etishga qaratilgan yangi ko'rsatmalar ishlab chiqilgan;

zamonaviy falsafa rivojida Frensis Bekon ilmiy-falsafiy merosining metodologik ahamiyatini yuksaltirish borasidagi tajriba va yutuqlari o'rganilgan va yangicha baho berilgan;

Frensis Bekonning ijtimoiy-tarixiy, axloqiy-falsafiy g'oyalari umumlashtirilgan holda o'rganilib, ularning falsafiy tadqiqotlarning nazariy-metodologik tamoyillari, tadqiqot natijalaridan samarali foydalanish hamda ularni boyitishning usullarini aniqlash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari yuzasidan berilgan xulosalar, taklif ishlab chiqilganligi va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarning ilmiy ahamiyati falsafiy tahlillar va ular asosida chiqarilgan xulosalarda milliy taraqqiyot va yangi avlod tarbiyasida buyuk allomalarning ilmiy-nazariy merosi muhim o'rin egallashida, F.Bekonning merosidagi inson aqlu-idrokini, intellektual salohiyatini yuksaltirishga oid g'oyalardan kelib chiqqan holda fanlar falsafasini barcha oliy yurtlariga ko'proq soatda joriy etish, chunki bugun tayyorlanayotgan oliy ma'lumotli mutaxassislar nafaqat o'zining tor sohasini, ularning amaliy texnologiyasini, xuddi shuningdek fanlar falsafasining zamonaviy taraqqiyotga taalluqli qarashlarini ijtimoiy hayotga tatbiq etish zarurligi ochib berishda, Frensis Bekonning bilimni egallashga intilish, aqlni charxlashga xalaqit beruvchi omillardan tozalash, kuch bilim va tajribada ekanligini ko'rsatish, tafakkurni yangi pog'onaga ko'tarish, taraqqiyotni ratsional tashkil etish va boshqarishda asosiy rol egallaydigan yangi avlodni voyaga yetkazish, inson hayotini farovonlashtirish va yengillashtirishga xizmat qiladigan tadbirlarda nazariy manba sifatida xizmat qilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekiston Respublikasi Ma'naviyat va ma'rifat markazining joylarda olib borayotgan targ'ibot ishlarida, "Falsafa tarixi", "Ijtimoiy falsafa" kabi fanlar mazmunini yangi ma'lumotlar bilan boyitish, darslik, o'quv qo'llanma, fan majmualarini yaratish, shuningdek, ma'ruza

va seminar mashg'ulotlarini olib borishda muhim qo'llanma sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Frensis Bekon ilmiy-falsafiy merosini tadqiq etish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

Yangi davr falsafasining asoschisi F.Bekon hayoti, ijodi va faoliyati o'zbek tilida ilmiy-falsafiy yo'nalishda birinchilardan aniqlashtirilgan hamda XVI asrning ikkinchi yarmi va XVII asr boshlarida Angliyada sodir bo'lgan radikal islohotlarni muammoli tomonlarning faylasuf hayoti hamda ijodida aks etganiga oid ilmiy natijalaridan "O'zbekiston" teleradiokanalining 2021-2022 yil yanvar, fevral, mart oylarida "Bedorlik", "Ta'lim va taraqqiyot", "Adabiy jarayon" eshittirishlari ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zMTRK "O'zbekiston" teleradiokanalining davlat muassasasining 2022 yil 13 dekabrda 04-36-2039-son ma'lumotnomasi). Natijada, faylasufning ahloq, ilm, barkamol inson, demokratik jamiyat mavzulariga oid asarlari parchalarining ingliz tilidan o'zbek tiliga qilingan tarjimalar tinglovchilarning falsafa tarixi va zamonaviy yo'nalishlariga oid ilmiy-nazariy tadqiqotlarga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishga, yoshlarning kamolotga erishishida umuminsoniy qadriyatlarga xos bo'lgan ruh pokligi, sog'lom fikr, adolat, vijdon sofligi, erkin fikrlash kabi konstruktiv g'oyalarni ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazishga xizmat qilgan.

Frensis Bekon ilmiy dunyoqarashining nazariy-falsafiy asoslarini nafaqat antik davr falsafasi, shuningdek Al-Qindiy, Forobiy, Ibn Rushd, Ibn Sino, Beruniy kabi Sharq mutafakkirlarining asarlari tashkil etishiga doir ilmiy-nazariy xulosalari, taklif va tavsiyalari Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2021-2022 yillarda o'tkazilgan tadbirlarda, ma'naviy- ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturining III yo'nalishida belgilangan "Oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyani uzviyligini ta'minlashga doir chora-tadbirlar" 11-bandi "Baxtli bo'lishning 10 sharti" rukni ostida o'quvchi-yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik tayanch fazilatlari mazmun-mohiyatinn yoshlar oigi va qalbiga singdirish hamda ushbu fazilatlarni shakllantirish" mavzusida o'tkazilgan targibot ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2022 yil 28 dekabrda 413-son ma'lumotnomasi). Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalaridan mamlakatimiz yoshlarini intellektual salohiyatni yukslatirish orqali ularda gumanistik karashlarini rivojlantirishga xizmat qilgan;

Frensis Bekon naturfalsafasining olamning asosi, inson va universum aloqalari kabi o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan hamda induksiya metodi va uning yangi davr falsafasidagi dialektik xarakterga egaligiga oid xulosa va takliflardan O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatida, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tadbirlarini o'tkazishda foydalanilgan (O'zbekiston Yoshlar ittifoqining 2022 yil 26 dekabrda 4-13-23-4484-son ma'lumotnomasi).

Natijada, yosh avlodni insonparvarlik ruhida tarbiyalashga, ma'naviy barqarorlikka erishishga xizmat qilgan hamda targ'ibot-tashviqot ishlar samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan;

Frensis Bekonning tarix va shaxs muammolari, siyosiy institutlarning qonun ustuvorligi ostida faoliyat yuritishini ta'minlashga oid ijtimoiy-tarixiy va siyosiy qarashlari, aqlni unga xavf solib turgan idollardan va ongni sxolastik dogmalardan xalos etish kabi axloqiy-falsafiy g'oyalarining hozirgi ijtimoiy-tarbiyaviy jarayonlar xarakteriga hamohang ekanligiga doir natijalardan, xulosa va takliflardan O'zbekiston ekologik harakatining ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar dasturlarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston ekologik harakatining 2022 yil 22 dekabrda 12/117-1-son ma'lumotnomasi). Natijada, yosh avlodning ekologik madaniyatni oshirish hamda tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalari e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola (3 ta respublika va 5 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, to'qqiz paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 140 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, ob'yekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy qilingani, e'lon qilinganligi, tadqiqotning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Frensis Bekon: yashagan davri, hayoti va ilmiy-falsafiy merosining asoslari**" deb nomlangan va unda yangi davrning xususiyatlari va ijtimoiy-falsafiy fikrlar rivojlanishi, Frensis Bekonning hayoti, ijodi, ilmiy-falsafiy merosiga ta'sir etgan davr va fenomenlar tahlil etilgan.

XVII asr boshlarida Angliya sanoati rivojlangan davlatga aylangan. Yangi sinfnig maydonga chiqishi, ilmiy-texnikaviy kashfiyotlarni qo'llab-quvvatlashi, liberal g'oyalarni targ'ib etishi yangi tarixiy davrni boshlab bergan. "Yangi davr" deb atalgan va tarixga kirgan ushbu davr nafaqat ilmiy-texnika sohasida, xuddi shuningdek, falsafa sohasida ham yirik tadqiqotchilarni, olimlarni, insoniyat

tafakkurini yangi konseptual g'oyalar bilan boyitgan mutafakkirlarni yetishtirgan, ulardan biri, hatto eng ko'zga ko'ringani Frensis Bekondir.

Dissertant ta'kidicha F. Bekon Yevropada tub o'zgarishlar ro'y berayotgan XVI asr o'rtalari va XVII asr boshlarida yashagan, ijod qilgan va faoliyat ko'rsatgan. Bu ilmiy kashfiyotlarga ehtiyoj oshib borayotgan Yangi davr edi. Ammo Bekonning hayoti, ijodi va faoliyati silliq kechmagan, ular ziddiyatlarga to'ladir. Ayniqsa, uning saroydagi faoliyati hamon bahs, tortishuvlar uyg'otib keladi.

Dissertatsiyada Bekonning ilmiy-falsafiy qarashlari sxolastikaga, mutaassiblikka qarshi Yevropa va Angliyada yuzaga kelgan insonning aqlu idrokini, ratsionalizmni, amaliy izlanishlarni qo'llab-quvvatlovchi fikrlar, harakatlar ta'sirida shakllanganligi qayd etiladi. Uyg'onish davrida an'anaga aylangan qadimgi yunon madaniyati, tafakkuri va falsafiy merosini o'rganish bo'lg'usi faylasufning ijodiy izlanishlariga ta'sir etmay qolmadi. U hayratli tarzda antik davr falsafasidan o'z davri uchun muhim ahamiyatga ega g'oyalarni topa olgan. Masalan, Geraklit, Demokrit, Anaksagor kabi donishmandlarning moddiy borliq haqidagi fikrlaridan o'zining ilmiy falsafasini yaratishda mohirona foydalangan. Shu bilan birga, u Arastu sxolastikasiga, teologik dogmalarga, g'ayriilmiy qarashlarga qarshi kurashgan. Deyarli o'n besh asr kishilar, avlodlar aqlu idrokini, tafakkurini o'z qolipida ushlab kelgan aristotelizmni keskin tanqid qilib chiqishi Bekonning ilmiy jasoratidir. Lekin Bekon Arastu merosiga nigilistcha yondashmaydi, uni o'ylamay-netmay inkor qilmaydi, u Arastuni "buyuk donishmand" ekanini ham tan oladi. Shuning uchun Yevropada XIX asrda yuzaga kelgan tanqidiy ratsionalizmning asoschisi Bekondir, deyish mumkin.

Bekonning ilmiy-falsafiy qarashlarida Sharq falsafasining ham ta'siri mavjud. Tarixiy-falsafiy adabiyotlar tahlili ko'rsatadiki, XIV asrda boshlangan Yevropa Uyg'onish davridagi ilm-fan va tafakkur taraqqiyotida Sharq mutafakkirlarining o'rni, ta'siri beqiyosdir⁷.

Dissertant Ibn Sinoni "Yevropa ustoz, Avitsenna" deyishlari bejiz emas. Buyuk allomaning "falsafiy merosi lotin averoistlari orqali Yevropa o'rta asrlar falsafasiga katta ta'sir etgani"⁸ni hamma olimlar qayd etgan. Uning ilmiy-falsafiy va tabiiy asarlari XII asrdayoq Yevropaga ma'lum bo'lgach, kitob nashr etish usuli yaratilganida esa birinchi kitoblar sifatida 1483-yili "Tibbiyot qonunlari" chop qilingan.

Tadqiqotda Ibn Sino va Frensis Bekon qarashlarida aynanlik va o'xshashlik borligini quyidagicha asoslab berilgan:

Birinchidan, Ibn Sino: "Narsalarni o'z ichiga oluvchi va shu tufayligina to'liq va aktual bo'luvchi narsa materiya (xayul, modda) deb ataladi"⁹. Demak, borliqning asosini materiya tashkil etadi. "Olam xudoning irodasi bilan emas, balki

⁷ Маковельский А. Досократики. -Москва, Харвест, 1999.-С.49-51.

⁸Ашуров Г. Абу Али ибн Сино - выдающийся мыслитель средневековья. / Ибн Сино и средневековая философия. – Душанбе, Дониш, 1981. – С.8-9.

⁹ Ўзбекистонда прогрессив ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихига доир материаллар. – Т.: Фан, 1959. – Б.109.

qat'iy zaruriyat kuchi bilan paydo bo'lgan"¹⁰. Bekon ham materiyaning abadiyligini, olamning yaratilishi aynan harakatchan, faol materiyaga borib taqalishini ta'kidlaydi¹¹. Biroq Ibn Sino ham, Bekon ham olamning yaratilishida materiya rolini mutlaqlashtirmaydi. Ba'zi tadqiqotchilar mutafakkirlarning olam substansiyasi sifatida materiya (ularning har ikkalasi ham yer, havo, suv, olovni substansiya sifatida tan oladi)ni e'tirof qilgani uchun ularni materialistlar qatoriga qo'shmoqchi bo'ladilar. Masalan, G.Ley yozadi: "Ibn Sino o'zining ilmga qarshi raqiblarini inkor qilish uchun vaqtincha ularning qarashlariga yon bosadi va ularni o'z dalillari bilan savalaydi. Agar xudo abadiy deb tasvirlansa, materiya ham abadiy bo'lishi zarur, agar xudo har narsaga qodir, yetuk bo'lsa, materiya ham eng avvalida u bilan birga mavjud bo'lishi darkor. Xudoning abadiyligi shubha ostiga olinmagan, balki aksincha tan olingan ekan, materiyaga ham shunday munosabatda bo'lish taqozo etiladi"¹². Darvoqe, Ibn Sino xudoning borligini rad etmagan, u, xudo va materiya abadiy¹³, degan deistik konsepsiyani ilgari surgan. Deistik konsepsiya Bekonga ham xosdir. Ammo u "ilk materiya" hech qanday sababsiz mavjud edi¹⁴, deydi.

Ibn Sino esa "boissiz oqibat, oqibatsiz bois yo'q" deb biladi. Agar Bekon materiyaning mavjudligini mutlaqlashtirishga intilsa, Ibn Sino xudo va materiyani dialektik tarzda yonma-yon, abadiy borliq sifatida qaraydi. Umrining oxirlarida Bekon xudoning mavjudligini, yaratuvchan kuch ekanini e'tirof etgan. Ibn Sino ham, Bekon ham dunyoning abadiyligini, deistik konsepsiyalaridan kelib chiqib tan oladi.

Ikkinchidan, aynan Ibn Sinoning fanlarni guruhlariga ajratishi Frensis Bekonning fanlarni guruhlariga ajratishiga yaqindir. Ibn Sino ilmlarni "Amaliy ilm" va "Nazariy ilm"larga ajratadi. "Birinchisi uchga bo'linadi, ya'ni jamiyatda, albatta, tartib va intizom bo'lishi uchun xalqni idora qilish ilmidir, bu ilm ham ikki turga bo'linadi: biri sharoit yo'l-yo'riqlarining qanday bo'lishi va ikkinchisi siyosatning qanday bo'lishi haqida, buning birinchisi tub bo'lsa, ikkinchisi uning shaxobchasi va natijasidir.

Ikkinchi ilm uyni idora qilish haqida, chunonchi uyda er bilan xotin, ota bilan bola, xo'jayin bilan xizmatchi o'rtalarida paydo bo'ladigan munosabatni tartibga tushirish haqida.

Uchinchi ilm odamning o'zi to'g'risida, kishilar o'ziga o'zi qanday munosabatda bo'lishi kerakligi haqida"¹⁵.

Buyuk alloma nazariy ilmni ham uch turga ajratadi. "Birinchisi – oliy ilm yo birinchi ilm deb yuritiladi, u tabiatdan tashqarida bo'lgan narsalar haqidagi ilm deb

¹⁰Асимов М.С., Диноршоев М. Вклад Абу али ибн Сино в мировую цивилизацию. / Ибн Сино и средневековая философия. – Душанбе, Дониш. 1981. – С.11.

¹¹ Бэкон Ф. О началах и истоках. Сочинения в двух томах. Т.2. – Москва, Мысль, 1978. – С.308-309.

¹² Лей Г. Очерки истории средневекового материализма. – Москва, Наука, 1962. – С.216-217.

¹³Сироджев Ф. Проблема извечности мира в философии Ибн Сина. / Ибн Сино и средневековая философия. – Душанбе, Дониш, 1981. – С.114.

¹⁴ Бэкон Ф. О началах и истоках. Сочинения в двух томах. Т.2. –Москва, "Мысль", 1978. – С.304.

¹⁵ Ўзбекистонда прогрессив ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихига доир материаллар. – Тошкент, Фан, 1959. – Б.105.

ham yuritiladi. Ikkinchisi – o‘rtancha ilm, matematika deb ataladi, buni ta’lim ilmi deb ham yuritishadi. Uchinchisi-tabiat ilmi yo quyi ilm deb ataladi”¹⁶.

Bekon esa fanlarni 3 ga ajratdi: tarix, she’riyat va falsafa. Olim “tarix muayyan bir joy va vaqtdagi shaxslar hayotini o‘rganadi”, deb ta’kidlaydi. Faylasuf ochib bergan tarix ilmi mohiyatan Ibn Sino nazarda tutgan amaliy ilmdir¹⁷. Bekon tarixni kishilarning amaliy faoliyatini tadqiq qiluvchi fan sifatida ifodalaydi, shuning uchun odamlar ijtimoiy faoliyati bilan bog‘liq (oila, jamiyatdagi munosabatlar, diniy ishlar va b.) kabi sohalarni tarix fanining obyektlariga kiritadi.

Ikkala faylasuf ham falsafani nazariy ilm sohasiga kiritadi. Ibn Sino uni “oliy ilm yo birinchi ilm”ga, Bekon esa “xudo, tabiat, odam” aloqalari haqidagi ilm sohasiga taalluqli deb ko‘rsatadi¹⁸. Mohiyatan ular bir xildir. Bu o‘xshashlikni olimlarning “tabiat haqidagi ilm” (Ibn Sino) va “tabiiy ilm” yoki “tabiiy falsafa” (Bekon) haqidagi fikrlarida kuzatish mumkin.

Bekon klassifikatsiyasida tabiiy falsafa birinchi o‘rinda turadi¹⁹. Ibn Sinoda esa tabiat ilmi “quyi ilm” deb ataladi. Biroq olimning bu iborasi tabiatni tadqiq etish murakkab emas, oddiy usullarda ham o‘rgansa bo‘ladi degan xulosaga olib kelmaydi. Ibn Sino bu borada shunday fikrni keltiradi: “kishilar va ularning tushunishiga eng yaqini (osoni emas-N.A.) tabiat haqidagi ilmdir. Lekin bu ilmda juda ko‘p noaniqliklar bor”²⁰.

Uchinchidan, Ibn Sino astrologiyaga tanqidiy qarab, ilohiyotga asoslangan dogmatik fikrlarga zid ravishda sog‘lom fikrlashni ustun qo‘ygani, tabiatda sodir bo‘ladigan hodisalarni harakatda va o‘zgarishda bo‘lgani, vaqt, makon va harakatning abadiyligini asoslab bergani, materiya va shaklning mushtarakligi, bilishda eksperiment va intuitsiyaning ahamiyati, mantiq borasidagi qarashlari tog‘ridan to‘g‘ri Bekonning ta’limotiga ham tegishlidir.

Misol uchun, alloma mantiqni faqatgina sillogizm yaratishga asoslangan fan emas, balki “mavjud bilim asosida haqiqatni izlash metodi” deb bilgan²¹. Shunga o‘xshash fikrga Bekon merosida ham duch kelish mumkin, u “haqiqiy mantiq alohida fanlar sohasiga katta kuch bilan kirishi”, undan oldingi bilim mantiq orqali sinalib, keyin mustahkamlanishi zarur. Mantiq “fanlar fani” sifatida mushohadalar orqali “haqiqatni izlaydi”, deb ko‘rsatdi²².

¹⁶ Ўзбекистонда прогрессив ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихига доир материаллар. – Тошкент, Фан, 1959. – Б.105.

¹⁷Бэкон Ф.О достоинстве и приумножении наук.Сочинения в двух томах.Т.2. –Москва, “Мысль”, 1978. – С.148-174.

¹⁸ Ўзбекистонда прогрессив ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихига доир материаллар. – Тошкент, Фан, 1959. – Б.106-107.

¹⁹ Бэкон Ф. Классификация человеческих познаний .Сочинения в двух томах.Т.1. – Москва,“Мысль”, 1978. – С.529 (Приложение).

²⁰ Ўзбекистонда прогрессив ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихига доир материаллар. – Тошкент, Фан, 1959. – Б.107.

²¹Асимов М.С.,Диноршоев М. Вклад Абу Али ибн Сино в мировую цивилизацию. / Ибн Сино и средневековая философия. –Душанбе, Дониш, 1981. – С.25.

²² Бэкон Ф.О достоинстве и приумножении наук. Сочинения в двух томах. Т.1.–Москва,“Мысль”, 1977. – С.277-279.

To'rtinchidan, Ibn Sino nazariy va amaliy fanlarni, Bekon esa induksiya va eksperimentni o'zaro bog'liqligini ta'kidlaydi. Induksiya aslida nazariy ilm usulidir. Masalan, Ibn Sino tib ilmi haqida: "tibning ikkala qismidan hech biri ilmdan boshqa narsa emas. Lekin ulardan biri tib qoidalarining ilmi bo'lib, ikkinchi ilm esa amaliy ishlarning qanday bo'lishidir"²³. Bekon esa: "induksiya shunday isbotlash usuliki... u tajribaga intiladi, u bilan deyarli birikib ketadi"²⁴, - deb qayd etadi.

Beshinchidan, Ibn Sinoning Frensis Bekon ilmiy-falsafiy qarashlariga bevosita ta'sir etgani hozirda mavjud adabiyotlarda qayd etilmaydi. Bekonning bizga ma'lum asarlarida esa "arabzabon faylasuflar" atamasi uchraydi xolos. A.V.Sagadeev "Ibn Sinoning o'rta asr G'arbiy Yevropa falsafiy tafakkuriga ta'siri ziddiyatlidir,- deb ko'rsatadi. – Chunki G'arbiy yevropalik kitobparastlar Ibn Sino matnlarini o'qib, ular tagidagi g'oyalarni tushunmaganlar, ular Ibn Sino ijodi kechgan ijtimoiy-madaniy muhit haqida hech qanday tasavvurga ega emas edilar"²⁵. Yevropa tadqiqotchilari Ibn Sinoning ko'pincha "Tib qonunlari" asarini tilga oladilar, ammo uning tabiiy falsafaga oid g'oyalari Foma Akvinskiy, D.Skot, Spinoza kabi tadqiqotchilarga ma'lum bo'lgan.

Amerikalik siyosatshunos Frederik Starr Markaziy Osiyoning X-XI asrlardagi davrini "Oltin asr"²⁶ degani bejiz emas. U Sharq Uyg'onish davrining bir qismi bo'lgan Markaziy Osiyoda ratsional tafakkur yordamida mantiqiy-tahliliy fikrlash madaniyatning bir qismi bo'lgan, deb uqtirmoqda. Aql irodasi, tafakkur madaniyati orqali olamshumul bilimlarga erishish jamiyatning tayanch e'tiqodi, qadriyatiga aylangan.

XVI asrning o'rtalari va XVII asrning boshlarida arabzabon falsafasi, ilm-fani, diniy-ma'naviy qarashlari Yevropada keng tarqalgan. "Dunyoni har qanday bosqichda ham tarqoq emas, balki birlikda va butunlikda, aloqada va muloqotda, unga xos bo'lgan qarama-qarshiliklar, qarama-qarshi kuchlarning bor umumiy harakatida qarash zarur. Aloqalar va umumlashmalarda dunyo taraqqiyotini vorisiylik nuqtayi nazaridan o'rganish muhim ahamiyatga egadir. G'arb Renessansiga boruvchi Sharq Uyg'onishining, xususan ingliz Uyg'onish davriga ta'sirini kuzatish muhimdir. An'analarning tarixiy o'zaro bog'liqligi o'rta asrlar ingliz Uyg'onish davri bilan musulmon Uyg'onish davri (X-XIII) bir-birini taqozo etgan. Ma'lumki, Ibn Rushd boshlab bergan intellektual harakat (XII asr) eksperimental fan shakllangach, Yevropa tafakkuriga ta'sir qilgan"²⁷. XII asr o'rtalaridan boshlab arab madaniyati Pirensiya yarim orolida mustahkam joy oladi, Al-Kindi, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, al-Farg'oniy G'arb arab falsafasining shakllanishida bosh manbalar bo'lgan. Bu, o'z navbatida, Yevropa, ayniqsa, ingliz falsafasiga, uning keyingi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan.

²³ Ўзбекистонда прогрессив ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихига доир материаллар. – Тошкент, Фан, 1959. – Б.110.

²⁴ Бэкон Ф. Великое восстановление наук . Сочинение в двух томах. Т.1. –Москва, «Мысль», 1977. – С.71.

²⁵ Сагадеев А.В. Ибн Сина (Авиценна). – Москва, «Мысль», 1980. – С.215-216.

²⁶Stiven Frederik Starr. Утраченное просвещение. Золотой век Центральной Азии от арабского завоевания до времени Тимурлана. – Москва, Alpina Publisher, 2017. – С.48.

²⁷ Шадманов К. Особенности английской философской мысли и лексики XIV-XVII веков. -Т.: 2003. -С.39.

Dissertant Bekon falsafasini tahlil qilar ekan, Sharq, ayniqsa arab tilida yozilgan mutafakkirlar asarlarining Yevropa tafakkuriga ta'siri haqida ham fikr bildirib o'tadi "Yevropa fani, shu jumladan falsafasi ham, Gretsiyada yuzaga kelgan, unga Rim, Arab yoki yangi yozuvchilarning qo'shgan ulushi e'tiborli emas va kamdir, ularning xususiyati qanday bo'lishidan qat'iy nazar Yevropa fani negizida greklarning kashfiyotlari yotadi. Ammo grek falsafasiga so'z emas, amaliyot yetishmaydi"²⁸. Ha, qadimgi yunonlar falsafasida real hayotiy muammolarni, amaliy ehtiyojlarni hal etishga intilish yo'q, lekin Yevropa tafakkuriga Sharq falsafasining ta'siri "e'tiborli emas", deyish e'tiroz uyg'otadi. Bu o'rinda Q.Shadmanov, H.Salomovalar²⁹ qayd etganidek, dunyoni yaxlit, birlikda qarashdan kelib chiqsa, G'arb Uyg'onishidan deyarli to'rt asr avval boshlangan. Sharq Renessansi Yevropa fani va falsafasiga ta'sir etmasligi mumkin emas edi. Al-Xorazmiy, Forobiy, al-Kindi, Ibn Rushd, Beruniy, Ibn Sino, G'azzoliy, Umar Xayyom, Rumi, al-Farg'oniy, Ulug'bek, Ali Qushchining ilmiy-falsafiy, diniy-axloqiy merosi o'rta asr G'arb olimlariga tanish bo'lgan. Biroq Bekonning o'zi esa misrlik, persiyalik faylasuflar, shoirlar ijodiga yuqori baho bermagan, grek faylasuflarini ulardan yuqoriroq qo'yimoqchi bo'lgan.

Bundan tashqari, Bekon asarlarida Sharq mutafakkirlarining nomlari va kitoblari keltirilmasa-da, u "arablar", "arabzabon faylasuflar", "yuksak forslar ilm-fani" degan iboralarni ishlatgan. Ibn Sino, Ibn Rushdning sxolastikaga, g'ayriilmiy qarashlarga qarshi chiqishi, al-Farg'oniy, Beruniyning ilm, tajriba, bilish metodlari, tabiiy hodisalarning ro'y berishi haqidagi fikrlari bilan Bekon ilmiy falsafasi o'rtasida yaqinlik, aynanlik ko'pdir. Bu yaqinlik tasodifiy hol emas, chunki Bekon Sharq mutafakkirlarining asarlaridan yaxshi xabardor bo'lgan Paratsels, Kardona, R.Bekon, Akviniyalik Foma, Buyuk Albert, L.Fibonachchi ijodini o'rgangan. Demak, F.Bekon ilmiy-falsafiy qarashlarining shakllanishida qadimgi yunon falsafasi bilan bir qatorda Sharq falsafasining ham hissasi bor.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Yangi davr falsafasining shakllanishida Frensis Bekon naturfalsafasi va epistemologik merosining ahamiyati**" deb nomlanib, mazkur bobda F.Bekonning naturfalsafasi, epistemologik izlanishlari, ilmiy bilish metodlari va ularning Yangi davr falsafasidagi o'rni masalalari tadqiq qilingan.

XVII asrgacha falsafada sxolastika, teologik qarashlar hukmron edi. Har qanday fikr ana shu sohalar orqaligina talqin qilingan. Insonning mustaqil izlanishga, aqlu idrokiga tayanib tabiatni, borliqni o'rganishga bo'lgan intilishi yo dahriylik, yoki "avtoritet"ga qarshi shakkoklik sifatida qaralgan. Tajribaga tayanish, tabiatni tajriba orqali takomillashtirish mumkinligi muhokama qilinmagan. Bekonning ilmiy-falsafiy merosi ana shu sxolastika va teologik qarashlardan inson aqlu idrokini, tajribani, tinmay bilishga intilishni yuqori qo'ygani bilan yangi maktabdir. Yangi davr falsafasi ilm-fanni xayol, o'y, sxolastikaga emas, balki ijtimoiy taraqqiyot, ishlab chiqarishni rivojlantirish

²⁸Feuerbach L.История философии фнового времени от Бэкона Веруламского до Бенедикта Спинозы .Собрание произведений в 3 томах. Т.1. – Москва, "Мысль", 1974. – С.98-99.

²⁹ Salomova H.Yu. Sotsiologiya: Darslik/Ma'sul muharrir O.N.Hamidov. – Buxoro, Durdona, 2022.

manfaatlariga bo'ysundirishga intilgani bilan yangi voqelikdir. Ushbu falsafaning mohiyatini Bekonning "bilim – kuchdir" degan da'vati tashkil etdi.

